BUXORO VILOYATI ROMITAN TUMANI HOKIMINING QARORI

201000, Romitan tumani, Buxoro ko'chasi, 3-uy, tel: (65) 55-2-14-45, romitan.t@exat.uz

2022 - yil 13 - dekabr 574-2-40-Q/22 Romitan tuman hokimligi

Romitan tuman hokimligi Tumandagi korxona, tashkilot, muassasa, xususiy korxonalarda texnikalarni harbiy hisobini yuritishga va texnik soz holatini tekshirish to‘g‘risida

Tumanda O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida» gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 martdagi 119-sonli «Harbiy hisobni yuritish to‘g‘risida»gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 22 iyul kunidagi 259-45 sonli «Harbiy transport majburiyati to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 1996 yil 28 avgust kunidagi 019-sonli va 2013 yil 25 dekabr kunidagi 0250-sonli buyrug‘i talablarini bajarish maqsadida tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, xususiy korxonalar, fermer xo‘jaliklari, firmalar, mulkchilikning qanday formada ekanligidan qat’iy nazar barcha xo‘jalik sub’ektlarida texnikalarni harbiy hisobini yuritishga va texnik holatini yanada yaxshilash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, xususiy korxonalar, fermer xo‘jaliklari, firmalar, mulkchilikning qanday formada ekanligidan qat’iy nazar barcha xo‘jalik sub’ektlari rahbarlari:

texnikalarni harbiy hisobini yuritilishi va texnik holatiga qattiq e’tibor qaratsin;

texnikalarni harbiy hisobni yuritilishi va ularni texnik holatini saqlash ishlari uchun ma’sul xodim tayinlab, ularni mudofaa ishlari bo‘limi bilan uzluksiz aloqada bo‘lishini, talab etilgan ma’lumot, hisobotlarni taqdim etishni va mashg‘ulotlarga ishtirok etilishini ta’minlasin;

ehtiyot qismlar avtomobil zahira asbob uskunalari va yoqilg‘i quyilish vositalari uchun javobgar shaxslar ish faoliyati ustidan doimiy nazorat qilib borish, hamda, texnikalarni doimiy jangovor shayligini ta’minlansin;

texnikalariga bog‘liq bo‘lgan fuqarolarni ishga qabul qilishda, ularni kerakli organlar ma’lumoti, xulqi, intizomi, ma’lumoti va bilimiga alohida etibor qaratilsin;

texnik ko‘rikdan o‘tkazish davrida tuman hududidagi tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, xususiy korxonalar, fermer xo‘jaliklari, firmalar, mulkchilikning qanday formada ekanligidan qat’iy nazar barcha xo‘jalik sub’ektlari balansidagi texnikalarni mudofaa ishlari bo‘limi hisobiga majburiy ravishda to‘liq (asosiy e’tibor g‘ildirakli va zanjir-tasma traktorlar, tirkamali va yarim tirkamali avtomobillar, tirkamali traktorlar, yuk ko‘tarish- tashish, yo‘l yotqizish-qurilish texnikalariga qaratilsin) olish ishlari amalga oshirilsin.

2. Transport vositalarini yillik Davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazish ishlarini sifatli va haqqoniy ta’minlash tuman IIB YXXG katta inspektori (R.Sultonov), Romitan transport va avtoturargohlar departamenti (H.Jurayev)ga va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi “Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (S.Azimov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali tayyorlansin va bir nusxasi tuman mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim qilinsin.

Yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlari tuman mudofaa ishlari bo‘limi bilan birgalikda amalga oshirilsin.

3. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (M.Uzoqov)ga:

mudofaa ishlari bo‘limi rezervistlar va harbiyga majburlarni hisobga olish bo‘linmasi boshlig‘i va uning texnikalarni hisobini yuritish bo‘yicha yordamchisi tomonidan belgilangan rejaga asosan korxona, tashkilot hamda muassasalarida texnikalarni harbiy hisobini yuritish va texnik holati tekshirib, natijalarni qayd etilgan dalolatnomalar nusxasini tuman hokimligiga taqdim etib borilsin;

mudofaa ishlari bo‘limiga texnikalarni harbiy hisobga olish va harbiy hisobdan chiqarishda konun talablari asosida amalga oshirilsin;

texnik ko‘rikdan o‘tkazish davrida mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan ajratilgan xodim, texnikalarni ko‘rikdan o‘tkazish jadvaliga asosan doimiy ish jarayonida qatnashishi ta’minlansin.

4. Tuman aloqa bog‘lamasi (Sh.Radjabov)ga:

tuman mudofaa ishlari bo‘limida jangovor va safarbarlik tayyorgarligini oshirish maqsadida, mudofaa ishlari bo‘limi bilan korxona, tashkilot, muassasalari,

xususiy korxonalar, firmalar rahbarlar o‘rtasida uzluksiz telefon aloqasi o‘rnatilishi ya’ni o‘z hisoblaridan ishonchli aloqa UZMOBIL bilan ta’minlanib, raqamlari taqdim etilsin.

5. tuman hokimining 2022 - yil 20 - iyuldagi 336-2-40-Q/22-sonli qarori o`z kuchini yo`qotgan deb topilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Salomov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Barnoyev U. I.**